

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## MIF VA ARXETIP MASALASI – MIFOPOETIKA MOHIYATINI OYDINLASHTIRUVCHI ASOSIY NUQTALARDAN BIRI

**Manzura OTAJONOVA,**  
*filologiya fanlari doktori, professor.*  
*Ma'mun universiteti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290840>

**Annotatsiya.** Maqola adabiyotshunoslikda mifopoetik yondashuv adabiy asarda qadimgi miflarning izlarini topish, unda qadim miflarga xos motivlar, arxetiplar qay tarzda transformasiyalangan holda aks etganini ko'rsatib berishni maqsad qiladi.

**Kalit so'zlar:** mif, arxetip, obraz, motiv, syujet, xarakter, personaj, mifologik obraz, arxetipik obraz, badiiy mifologizm, demifologizasiya, remifologizasiya.

**Аннотация.** В статье мифопоэтический подход в литературоведении ставится целью найти в литературном произведении следы древних мифов, показать, каким образом в нем трансформировались мотивы, архетипы, характерные для древних мифов.

**Ключевые слова:** миф, архетип, образ, мотив, сюжет, характер, характер, мифологический образ, архетипический образ, художественный мифологизм, демифологизация, ремифологизация.

**Abstrakt.** The article mythopoetic approach in literary studies aims to find traces of ancient myths in a literary work, in which motifs typical of ancient myths, archetypes are reflected in what way they are transformed.

**Keywords:** myth, archetype, image, motif, plot, character, character, mythological image, archetypal image, artistic mythologism, demifologization, remifologization.

Bugungi kunda san'atning boshqa turlarida bo'lgani kabi badiiy adabiyotda ham miflarni anglash, idrok etish va ularning zamiriga singdirilgan ong osti hislarining mag'zini ilg'ashga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ijodkorlar dunyoqarashi va badiiy niyati XX asrdagi salafklariga qaraganda intellektual jihatdan ancha baland darajaga chiqdi.

Qadimshunoslikka oid tadqiqotlar natijasida ajdodlarimizning badiiy qadriyatlarini, mifologik tasavvurlari va inonch-e'tiqodlarini o'zida ifoda etgan ko'pdan-ko'p yangi artefaktlar, arxeologik manbalar aniqlandi va keng ommalashtirildi. Jahonning turli xalqlari, jumladan, turkiy xalqlarning mifologik qomuslari (masalan, S.Qondibay tomonidan yaratilgan 5 jildli "Arg'i qazaq mifologiyasi", Fatix Urmanche tayyorlagan uch tomli "Tatar mifologiyasi", F.Xusamuddinovanning "Entsiklopediya bashkirkoy mifologiya" asari va h.k.), mif matnlari chop etildi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bugungi adabiy jarayonni yaratayotgan ijodkorlar XX asrdagi ijodkorlar kabi ko‘proq antik asotirlar yoki muayyan folklor asarlari orqali saqlanib qolgan arxaik syujetlarni stilizatsiya qilish yo‘lidan bormay, milliy etnomadaniy mohiyat kasb etuvchi mifik tasavvur tizimi hamda olam mifologik manzarasining semiotik talqinlarini asar tagmatniga singdirib yuborish orqali asar qahramonlari ruhiyatidagi falsafiy-psixologik buhronlarni aks ettirishga erishdilar. Bu esa mustaqillik davri o‘zbek nasridagi badiiy mifologizmlarni tahlil qilishda u yoki mifologik syujet, motiv, obraz yoki detalni qayd etishdan iborat eskicha yo‘ldan bormay mifopoetik tahlil metodologiyasini ham o‘zgartirish taqozo etadi. Nazarimizda, badiiy asarda qo‘llanilgan mifologizmlarning struktural-semantik xususiyatlarini ochib berish, mifologik kontekstning asar kompozitsion qurilishidagi funksiyasini ruhiy-tahlil metodi yordamida tadqiq etish, ayniqsa, miflarni "modernistik" talqin qilish holatlari murakkab tahlil usullarini talab qiladi.

Adabiyotshunoslikda mifopoetik yondashuv adabiy asarda qadimgi miflarning izlarini topish, unda qadim miflarga xos motivlar, arxetiplar qay tarzda transformatsiyalangan holda aks etganini ko‘rsatib berishni maqsad qiladi. Adabiyotshunoslikda nasriy asarlardagi mif elementlarini tahlil qilishda qo‘llanilayotgan "mifologik obraz (syujet, motiv)" va "arxetipik obraz (syujet, motiv)" tushunchalarining bir-biridan farqli jihatlarga egaligi masalasiga oydinlik kiritish lozim. Darhaqiqat, mif va arxetip masalasi – mifopoetika mohiyatini oydinlashtiruvchi asosiy nuqtalardan biri.

Arxetip (yunoncha: arche – boshlang‘ich, tupos – namuna) – badiiy asar haqidagi muallif yaratgan boshlang‘ich tasavvur, universal timsol. Ijodiy tafakkurga xos qoliplar, sxematik fikrlash tarzi va ibtidoiy motivlar. Arxetip dastlab Aflotun tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, "eydos" tushunchasi talqinida arxetip xususida fikr yuritilgan. Shveysariyalik olim K.G.Yung uni adabiy istiloh sifatida adabiyotshunoslikka olib kirgan. Kanadalik olim Nortrop Fray Yung ta‘limotini rivojlantirib, "Adabiy tanqid anatomiyasi" kitobi (1957)da mifologik maktabga asos solgan va adabiyot, folklor hamda miflarni bir tizimda tahlil qilishga e‘tibor qaratgan. Natijada arxetip muallif va kitobxon o‘rtasidagi kommunikativ modelga aylangan. Yungning psixologik nazariyasiga qadar antropolog J.Frezer "Oltin butoq" kitobi (1890-1915)da mif va rasm-odatlarni to‘plab, ularning umumiy namunalarini ko‘rsatgan edi.

Arxetip "inson shaxsi sirini ochish"ga qaratilgan. Kishi individual psixikasidagi instinktiv shakllardan biri bo‘lib, ongga obraz, tasvir va fantaziya bo‘lib

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kirib keladi. Yungning yozishicha, tafakkurdan voz kechib, arxetip orqali tushuntirish mumkin bo‘lgan hodisadir. Yung bir qator arxetiplarni aniqlab, ularga konkret nomlar bergan: anima (erkak kishi ongidagi ayollar haqidagi boshlang‘ich tasavvur) va Animus (ayollar psixikasidagi erkakning tasviri). Arxetip psixikaning ongsiz qismi, soya bo‘lib, shaxsning qorong‘i va sirli jihatlarining ramzidir. Arxetip individning boshlang‘ich soyasi bo‘lib, tashqi hayot ta‘sirida o‘z-o‘zini belgilash tamoyiliga aylanadi. Shu kabi bola, ona, chol yoki keksa arxetip bor.

Arxetip matnshunoslikda birlamchi manbalarning vujudga kelish shakllarini aniqlashda yordam beradi. Arxetip avval miflarda, so‘ngra adabiyotda takrorlanadi. Mavzu, obraz, xarakter, motiv, syujet va personaj kabilar jamoa tasavvurida o‘tmish tajribasi asosida takrorlanadi, an‘anaviy shakllarni qat‘iylashtiradi. Uning xususiyatlari: aniq materialga nisbatan ideal xarakterga ega (1), tipologik takroriylik (2), shaklning ilk "yaratilishdan avvalgi tasavvuri" (3), alohida bir asardagina mavjud holat emas (4). Inson psixikadan o‘rin olgan arxetiplar ruhiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi, lekin ko‘pincha, u mif va urf-odat, marosimlarda aks etadi. Turli xalqlarning miflarida turlicha holatda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, kosmogonik (dunyoning paydo bo‘lishi haqidagi), antropogonik (insonning paydo bo‘lishi haqidagi), teogonik (ma‘budlarning paydo bo‘lishi haqidagi), marosim yoki mavsum (yil fasllarining almashinishiga doir) va esxatologik (dunyoning tugashi haqidagi) miflaridagi arxetip bir-biridan farq qilishi mumkin. Bunday farqlardan qat‘i nazar, ularning yaratuvchisi, dunyoning quruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Yunon mifologiyasida bunday madaniy qahramon sifatida Prometeyni ko‘rsatish va uni arxetipik obraz sifatida qabul qilish mumkin.

Arxetip va miflarni o‘rganishda bir qator istilohlarga duch kelamiz: mifologema (arxetipga yaqin ma‘nodagi mifik tushuncha), arxetipik (yoki arxaik) model, arxetipik jihat, arxetipik formula, arxetipik motiv kabi. Bularning har biri tahlil jarayonida arxetip birliklarni aniqlab olishga to‘g‘ri keladi. Masalan, A.N.Veselovskiyning talqinicha, motiv boshlang‘ich bayon birligi sifatida qabul qilingan. Adabiyot va san‘atning barcha turlarida arxaik motivlar shunga olib keladiki, arxetip bu hollarning barchasida tadqiqot quroli sifatida xizmat qilishi mumkin. Arxetipga bunday yondashuv aka-uka V. va Ya.Grimlar, V.Buslaev, A.Afanasev kabi mifologik maktab namoyandalari ishlarida ko‘zga tashlanadi. Arxetip ingliz olimi M.Abrams fikricha, badiiy asar modeli, bayon tipidir. S.Averintsev talqiniga ko‘ra, muallif va kitobxon o‘rtasidagi kommunikativ model, fenomenologik struktura (ichi bo‘sh tarkib) bo‘lib, u yozuvchi tomonidan to‘ldirilishi

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kerak. J.Kuddon arxetipni takrorlanuvchi mavzu, obraz va xarakterlar tarzida tushuntiradi. Zamonaviy romanlarga yondashuvda ham arxetipni o‘rganish yordam berishi mumkin. Masalan, J.Joys, T.Mann, F.Kafka asarlari tahliliga arxetipik yondashuv zarur. J.Joysning "Uliss" romanidagi Blum, Tomas Manning "Sehrli tog" romanidagi Gans Kastorp "arxetipik tahlilga "muhtoj" qahramonlardir. Professor Yu.Lotman A.S.Pushkin, N.V.Gogol ijodidan arxetiplarning turli shakllari transformasiyasini keltiradi. Zamonaviy asarlardagi arxaik va mifologik motivlar tahlilida G.Markesning "Tanholikning yuz yili", "Buzrukning kuzi", Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", "Kassandra tamg‘asi", "Tog‘lar qulaganda (Abadiy qayliq)" arxetipdan foydalanish mumkin.

Arxetip tushunchasi badiiy asarning strukturasi tadqiqot unsuri sifatida ishtirok etadi. U zamonlar va insonni bog‘lovchi hodisa sifatida, o‘tmish xotirasini saqlashda muhim ahamiyatga ega [1.542]. Arxetip deganda inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo‘lgan turg‘un "sxema"lar, konstruktsiyalar, qoliplar tushunilib, ularning izlari eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko‘rish mumkin. Arxetip konstruktsiyalar va sxemalardan o‘ziga xos "syujet va syujet holatlari" jamg‘armasi hosil bo‘ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko‘chib yuradi [7.38]. Arxetipni inson ruhiyatida yashab kelayotgan eng qadimgi davrlardan beri dunyoni qabul qilish, tushunish bilan bog‘liq umumiy tasavvurlar, yagona modeldir deb ta’riflash mumkin. Arxetip haqida gap borganda, asosan arxetip obrazlar nazarda tutib fikr yuritiladi. K.G.Yungning qarashicha, arxetipning o‘zi hali obraz emas, balki obrazlar sxemasidir. Arxetip insoniyatning ongostida azaldan mavjud bo‘lgan dastlabki shakl, umumiy strukturadir. U insoniyat ruhiyatida doimiy yashaydigan uzviy qismdir. Arxetiplar faqat din, mifologiya va tushlardagi obrazlardagina o‘zini ifoda etadi. Bu obrazlarni tahlilga tortish orqali arxetip haqida tushunchaga ega bo‘lish mumkin. Demak, ramziy va metaforik timsollar arxetiplarning asosi bo‘lib, mif ijod qilish jarayoni arxetiplarning obrazga o‘shini ta’minlaydi. Asosan bu obrazlar poetik ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Nazarimizda, u yoki bu asardagi arxetiplar haqida gap ketganda tahlilga tortilgan arxetipik element hamma vaqt ham mif bilan bog‘liq bo‘lavermaydi. Chunki arxetiplar orasida nafaqat mifologiya, balki voqelikni badiiy-estetik ifoda etishning arxaik epos, sinkretik san‘at va marosimiy amallardan iborat qadimgi shakllariga xos elementlar ham ko‘p uchraydi. Shuning uchun ham adabiyotshunoslikda mifologik semantikaga ega bo‘lgan adabiy hodisalar badiiy mifologizm sifatida mifopoetika tarkibida o‘rganiladi.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Hozirgi o'zbek adabiyotidagi mifologizmlarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashda uni "badiiy mifologizm" atamasi bilan nomlash to'g'riroq ko'rinadi. Chunki hozirgi davrda mifologizm, ya'ni qadimgi mifologik syujetlar, motivlar, obrazlar va mifik tasavvur elementlari, shuningdek, olamni mifologik anglash usulidan san'atning deyarli barcha turlarida, jumladan, tasviriy san'at, kino va sahna san'ati, zamonaviy xoreografiya va maydon tomoshalarida ham keng ko'lamda foydalanilmoqda. Bunday mifologik talqinlar qadimgi odamlarning olam haqidagi eng ko'hna inonch-e'tiqodlarini o'zida ifoda etgan arxaik mifning aynan o'zi emas, balki zamonaviy san'at bilan shug'ullanuvchi ijodkorlar fantaziyasi va xayolotida reinkarnasiyalashgan – qayta jonlantirilib, bugungi davrning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini aks ettirish vositasiga aylangan ko'rinishlari bo'lib, ularning barchasi "mifologizm" atamasi ostida umumlashtiriladi.

Adabiyotshunoslikda demifologizatsiya (qadimgi miflar mohiyatini inkor qilish orqali o'zlikni anglashga intilish), remifologizatsiya (allaqachon unutilib ketgan mifologik tasavvurlar, syujet va obrazlarni qayta "tiriltirish") va mifologizatsiya kabi tushunchalar badiiy mifologizmning usullari sifatida talqin qilinadi. XX asr ingliz adabiyotida badiiy mifologizmning milliy o'ziga xos talqinlari dastavval J.Joysning "Ulyss", D.G.Lorensning "Qanotli ilon", J.Tolkinning "Uzuk egasi" kabi asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, keyinchalik bu an'anani davom ettirgan K.Volf ("Medeya"), M.Gavran ("Yudif") va boshqa yozuvchilar mifologizmdan foydalanish an'anasining yangi qirralarini namoyon etishdi.

"Badiiy mifologizm" va "Adabiy mifologizm" atamalarining ma'no-mohiyati ilk bor taniqli adabiyotshunos olim E.M.Meletinskiyning "Poetika mifa" nomli asarida keng ko'lamda izohlandi. Uning fikricha, adabiy mifologizmda mifologik prototiplarning turli "niqob"lar ostida abadiy qaytarilib turishi, adabiy va mifologik kahramonlar doimiy ravishda o'rin almashib turishi hamda hayotiy voqelik talqinining mifologizatsiyasi birinchi planga chiqadi. Undan farqli o'laroq, badiiy mifologizmning semantik ko'lami ma'lum darajada torroq bo'lib, nasriy asarlarda badiiy shartlilikni yuzaga chiqarish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy mifologizmning matn strukturasi va funksional-semantik vazifasi ham shu bilan belgilanadi. [4.277] Bolgar adibi Yordan Radichkovning roman-miflarini tadqiq etgan I.V.Uvarovning fikricha, "Badiiy mifologizm keng ko'lamlilik tushuncha bo'lib, badiiy adabiyotda uchraydigan barcha miflarni, jumladan, muallif tomonidan folklordan o'zlashtirilgan yoki uning o'zi ijod qilgan mifologik syujetlar, motivlar va obrazlarni ham, badiiy asar matnini tahlil qilish asosida aniqlanishi mumkin bo'lgan

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

olam mifologik manzarasi va mifologik tasavvurlarning ramziy-semiotik talqinlarini ham o‘z ichiga oladi". [5.9]

Adabiyotshunos S.Yu.Koroleva o'zining qishloq hayotiga bag'ishlangan rus romanlarida qo'llanilgan mifologik obrazlar va asotiriy motivlarni "badiiy mifologizm" atamasi bilan tahlil qilgan [6.12]. Uning fikricha, qishloq hayoti tasvirlangan romanlarda badiiy mifologizmning ikki xil shakli mavjudligi kuzatiladi. Birinchisi, eksplisit (lotincha "explicite" so'zi "ochiq-oydin" degan ma'noni anglatadi) tipdagi mifologik struktura (obrazlar, syujetlar, motivlar)lar bo'lib, bunda badiiy asarga singdirib yuborilgan fantastik elementlar semantikasi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ikkinchisi implisit (inglizcha "implicit" so'zi "taxmin qilingan", "yaqqol aks etmagan" degan ma'nolarni bildiradi) tipdagi badiiy strukturalar bo'lib, mifologik tasavvurlar bilan bog'liq mifopoetika elementlari muayyan belgilar, timsoliy ifodalar va obrazlar orqali ifodalangan bo'ladi. Mifologiyaga murojaat qilish kuchayib borayotganining sabablari ko'p bo'lib, ular orasida taraqqiyot qanchalik tezlashib borgani sayin insoniyat o'zining "bolaligi"dan shu qadar uzoqlashib borayotganligini his qilishi, bolalik kechinmalarining sog'inchi uni o'sha damlarga qaytishga undashi, globalizasiya chigalliklaridan charchagan kishi qalbiga ertaklaridagi sehrli-osuda hayotga qaytish istagining paydo bo'lishi asosiy o'rinni egallaydi. Qolaversa, olamni mifologik anglash usuli bugungi ijodkorga o'z qahramonlarining ichki dunyosini ruhiy-emosional tahlil qilishda katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Masalan, arxaik miflarda olamning paydo bo'lishi xaos (yo'qlik)dan Kosmos (borliq, olam)ning vujudga kelishi tarzida izohlangani kabi yozuvchi ham o'z qahramonining yangi mazmun, mohiyat va ichki garmoniyaga ega bo'lgan olamini yaratishda ana shu arxetipga murojaat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotshunoslik entsiklopediyasi / Tuzuvchi: Boltaboev H. – Toshkent: mumtoz so'z, 2015. – B.542.
2. Averentsev S.S. Arxetipi / mifi narodov mira. Entsiklopediya. Tom 1. – M.: Sovetskaya entsiklopediya, 1992. – S.110.
3. Borev Yu. Entsiklopedicheskiy slovar estetiki i teorii literaturi. – M., 2008. – S.109;
4. Meletinskiy E.M. Poetika mifa. – M. Izdatelskaya firma Vostochnaya literatura ran, 2000. – S.277.
5. Uvarov I.V. Tipi xudojestvennogo mifologizma v proze Yordana Radichkova: Avtoref. diss. kand. Filol. nauk. – M., 2007. – S.9.
6. Koroleva S.Yu. Xudojestvenniy mifologizm v proze o derevne 1970-90-x godov: Avtoref. diss. kand. Filol. nauk. – Perm, 2006. – S.12-13.
7. Quronov D, Mamajonov Z, Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010, - B.38.